

Haziniy ijodida istiora san'ati

Olmosxon Abdurahmonova
QDPI talabasi

“Istiora” arabcha soʻz boʻlib, oriyatga (omonatga) olish degan maʼnoni anglatadi. Istiorada soʻz yoki iboralar asl maʼnosida emas, balki boshqa maʼnoda ishlatiladi va soʻzlarning koʻchma maʼnosi tashbixiy bogʻlanish asosida yuzaga keladi. Zotan, istiora yopiq tashbixning oqibatida yuzaga keladi. Oʻz xususiyatiga koʻra istiora ikkiga boʻlinadi:

1. Ochiq istiora (yuzing guli)
2. Yopiq istiora (gul yor)

Ochiq istiora oʻxshatilgan narsa tilga olinmay, faqat istioralasnuvchigina zikr qilinsa, bunday usul ochiq istiora deyiladi.¹

Haziniy ijodida istioraning bu koʻrinishi koʻplab uchraydi. Masalan shoir

Qoʻysa qadam kulbama ul oftob,
Ravshan oʻlur zulmatidan mohtob.

baytida oftob ochiq istiora yoʻli bilan maʼshuqa oʻrnida kelgan.

Haziniy “Qil” radifli gʻazalining

Ul qaddi nihol uzra zebo ikki norinding,
Men aning talabgori, jono, ani ehson qil.

baytida istiora yoʻli bilan qaddi nihol- maʼshuqa, ikki nor- yonoq maʼnosida ishlatgan.

Shoir sheʼriyatida istioraning goʻzal naʼmunalari uchraydi. Shulardan, “Qildi” radifli gʻazalining

Ul shoʻxi sitamgarlar hajrida ado qildi,
Hasrat yukini ortdi, qaddimni duto qildi,

baytida “hasrat yuk”i istioraviy birikma boʻlib, lirik qahramonning qaddini bukib qoʻygan ishq gʻami maʼnosida kelganligini sezish qiyin emas.

Haziniyning nafaqat gʻazallarida balki, muxammas va musaddaslarida ham istiora baddiy tasvir usuliga tez-tez murojaat etgan: xarakterli joyi shundaki, shoir bu sanʼatni oʻz ijodining gʻoyaviy yoʻnalishiga mos xolda qoʻllaydi. Jumladan,

Ul shariat mazhari roʻyi gʻubor oʻldi, darigʻ,
Ketti holo ravnaqi islom, xor oʻldi darigʻ,
Qozilar hukmi, ajab, beʼetibor oʻldi, darigʻ,
Zikri Haq moneʼ, sharorat oshkor oʻldi, darigʻ,
Yaxshilarga turgali Fargʻona tor oʻldi, darigʻ.

bandi bilan boshlanuvchi muxammasida “shariat mazhari” istioraviy birikmasi orqali shariat oynaga qiyoslanadi.

¹ Isʼhoqov Yo. “Soʻz sanʼati soʻzligi”. T.: “Zarqalam” 22-bet.

Andijon zilzilasiga bag'ishlab yozilgan musaddasida xam shu xolatni, ya'ni badiiy tasvir vositalari va g'oyaviy niyat o'rtasida mutanosiblikni kuzatish mumkin.

Musaddasning

Ki, sandin qo'rqmayin bir necha odam haddidin oshti,
Ziroat o'rniga el ma'siyatlar tuxmini sochti,
Gunoh daryosi mavj urdi, jahon ichra to'lib-toshti,
Balo boshig'a kelguncha haloyiq turfa ko'p shoshti,
O'zing rahm aylagil, Farg'onani zeri turob etma,
Bu dorul-mulkni Toshkand, Andijon yanlig' xarob etma.

bandida "ziroat" yaxshi amallar qilib, hosil olishi kerak bo'lgan olam, dunyo, ma'nosida qo'llangan bo'lsa, "ma'siyat tuxmi" ochiq istiorasida yomonlik urug'iga, gunoh daryosi orqali esa gunohlarning to'lib-toshgani daryoga qiyos etiladi.

Yo rab, ul oy shavqini qilma dame jondin judo,
Tiya shomim hajr aro ul mohi tobondan judo.

baytida esa bir ma'noda istiora shaklan ikki xil ko'rinishda keladi. Binobarin, baytdagi "oy" va "mohi tobon" so'zlarining har ikkisi ostida go'zal ma'shuqa jamoli nazarda tutiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, istiora san'ati Haziniy ijodida unumli istifoda etilgan badiiy san'atlardan biri. U Haziniy san'atkorlik mahoratini ko'rsatuvchi, she'riyatining badiiy jihatdan o'ziga xosligini belgilovchi tasvir usullaridandir.